

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA YURIDIK XULOSA

1.Loyihaning turi: Shartnoma.

2.Loyihaning nomi. Haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasi.

Shofirkon tumani Xalq ta'limi bo'limi va "OOO SDD BUSINESS CENTRE" mas'uliyati cheklangan jamiyati o'rtasida 39 024 250 (O'ttiz to'qqiz million yigirma to'rt ming ikki yuz ellik) so'mlik dezinfeksiya xizmatlarini bajarish bo'yicha shartnoma.

3.Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot.

Shofirkon tumani Xalq ta'limi bo'limi tomonidan loyiha markazga 2022-yil 28-aprel sanasida yuridik xulosa uchun yuborilgan, 2022-yil 29-aprel sanasida loyiha markazning mas'ul xodimiga biriktirilgan.

Loyiha Shofirkon tumani Xalq ta'limi bo'limi tomonidan taqdim etilgan ilova hujjatlari asosida ko'rib chiqildi.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti



B.Safarov

HAQ EVAZIGA XIZMAT KO'RSATISH ShARTNOMASI

2022 y. «29» 4

2022-134-2-41-XT-
son

Shofirkon tumani.

Shofirkon tuman XTB (keyingi o'rnlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi) nomidan o'zining nizomi asosida ish yurituvchi R.Atoyev (vazifasi, familiyasi, ismi) timsolida, bir tomonidan "OOO SDD BUSINESS CENTRE" MCHJ (keyingi o'rnlarda "Bajaruvchi" deb yuritiladi) nomidan o'zining ustavi asosida ish yurituvchi D.Sodiqov timsolida, ikkinchi tomonidan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

I. ShARTNOMA PREDMETI

- 1.1. Mazkur shartnoma bo'yicha "Bajaruvchi" "Buyurtmachiga dezinfeksiya xizmatlarini bajarish "Buyurtmachi" ushbu Xizmatlar"ni qabul qilish va qiymatini to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.
- 1.2. "Xizmatlar"ni ko'rsatish muddati 2022-yil "31"-avgustgacha amalga oshiriladi.

II. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

2.1. "Buyurtmachi"ning huquqlari:

- 2.1.1. "Bajaruvchi"dan shartnomani bajarish uchun zarur bo'lgan amaldagi davlat standartlari va boshqa normativ hujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish;
- 2.1.2. "Bajaruvchi"dan "Xizmatlar"ni ko'rsatish uchun "Buyurtmachi"ning transportdan foydalilanilda transport xarajatlarini qoplashni talab qilish;
- 2.1.3. "Bajaruvchi"dan mazkur shartnomaga muvofiq beriladigan ko'rsatilishini buyurtmanomaga muvofiq tegishli sifatga ega bo'lgan "Xizmatlar" ko'rsatilishini talab qilish;
- 2.1.4. Zarur sifatga ega bo'lmagan "Xizmatlar" ko'rsatilgan taqdirda o'z tanlashiga ko'ra:
 - Zarur sifatga ega bo'lmagan "Xizmatlar" shunga o'xshash "Xizmatlar" bilan almashtirilishini;
 - "Xizmatlar"ning kamchiliklari bepul bartaraf etilishini yoki kamchiliklarni Buyurtmachi yoxud uchinchi shaxslar tomonidan to'g'rilanishi xarajatlarini qoplashni;
 - Bahosining mutanosib tarzda kamaytirilishini talab qilish;
- 2.1.5. Shartnoma shartlari bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi natijasida yetkazilgan zarar qoplanishini "Bajaruvchi"dan talab qilish.

2.2. "Buyurtmachi"ningmajburiyatları:

- 2.2.1. «Xizmatlar»ni 2022-yilda budjetdan ajratilgan mablag'lar doirasida "Bajaruvchi" bilan shartnoma tuzish;
- 2.2.2. O'z buyurtmanomasi bo'yicha ko'rsatilgan "Xizmatlar"ni mazkur shartnomaga muvofiq qabul qilish;

2.3. «Bajaruvchi» quyidagi huquqlarga ega:

- 2.3.1. Ko'rsatilgan "Xizmatlar" uchun oldindan haq to'lanishini va amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va hajmda uzil-kesil hisob qilinishini "Buyurtmachi"dan talab qilish;
- 2.3.2. Berilgan buyurtmanomaga muvofiq ko'rsatilgan "Xizmatlar"ni qabul qilish asossiz rad etilishi natijasida yetkazilgan zarar qoplanishini "Buyurtmachi"dan talab qilish.

2.4. «Bajaruvchi» quyidagilarga majbur:

- 2.4.1. «Buyurtmachi» bilan tuzgan shartnoma imzolanib, G'aznachilik bo'limidan ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng "Xizmatlar"ni ko'rsatish;
- 2.4.2. "Buyurtmachi"ga "Xizmatlar"ni mazkur shartnomaga muvofiq yoki "Buyurtmachi" tomonidan mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda beriladiganuning buyurt manomasiga muvofiq muddatlar, sifat va miqdorda ko'rsatish;
- 2.4.3. Agar "Xizmatlar"ni ko'rsatish jarayonida "Bajaruvchi" shartnoma shartlari va normativlardan chekinishga yo'l qo'ygan bo'lsa, "Buyurtmachi"ning talabi bilan aniqlangan barcha kamchiliklarni 3 kun muddatda tekin tuzatib berish.

III. ShARTNOMANING BAHOSI VA HISOB- KITOB TARTIBI

3.1. Mazkur shartnomaning bahosi QQSSiz 39 024 250 (O'ttiz to'qqiz million yigirma to'rt ming ikki yuz elliik) so'mni tashkil etadi.

3.2. "Buyurtmachi" ko'rsatiladigan "Xizmatlar" turkumi summasining 11 707 275 (O'n bir million yetti yuz yetti ming ikki yuz yetmish besh)so'm, ya'ni 30% foizi miqdorida 2022-yilning may oyida oldindan haq to'laydi va Ko'rsatilgan "Xizmatlar" uchun qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolanganidan keyin "Xizmatlar" turkumi summasining 27 316 975 (Yigirma etti million uch yuz un olti ming to'qqiz yuz yetmish besh) so'm, ya'ni 70% foizi miqdoridagi to'lovni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi tuzilganidan so'ng joriya yilida 10 kun ichida amalga oshiradi.

3.3. Ko'rsatilgan "Xizmatlar" uchun pul ko'chirish yo'lli bilan naqd pulsiz tartibda hisob-kitob qilinadi.

IV. ShARTNOMANING BAJARILISHI

4.1. Shartnoma mazkur shartnoma va qonun hujjatlari shartlari va talablariga muvofiq zarur tarzda bajarilishi kerak. Agar tomonlar o'z zimmalariga qabul qilingan barcha majburiyatlar bajarilishini ta'minlasa, shartnoma bajarilgan deb hisoblanadi.

4.2. Shartnoma bajarilishini bir tomonlama rad etishga yoki shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarda belgilangan hollar bundan mustasno.

4.3. "Xizmatlar" qabul qilish-topshirish dalolatnomalari tuzilgan sana shartnomalar bo'yicha majburiyatlar bajarilgan sana hisoblanadi. "Buyurtma"chining Hisob-kitob hujjatida g'aznachilik bo'linmalarining shtampida ko'rsatilgan sana "Xizmatlar"ga haq to'lash bo'yicha "Buyurtmachi" majburiyatlar bajarilgan sana hisoblanadi.

4.4. "Buyurtmachi" muddatlar buzilgan holda ko'rsatilgan "Xizmatlar"ni qabul qilishni rad etishga haqlidir.

4.5. Nazarda tutilgan miqdordan ortiqcha bir nomda "Xizmatlar" ko'rsatilishi ushbu assortimentga kiruvchi boshqa nomdag'i ko'rsatilmagan "Xizmatlar" o'rnini to'ldirish sifatida qaralmaydi va ko'rsatilmagan "Xizmatlar"ning o'rni to'ldirilishi kerak, bunday "Xizmatlar""Buyurtmachi"ning oldindan berilgan yozma roziligi bo'yicha ko'rsatilgan hollar bundan mustasno.

4.6. Ko'rsatilgan "Xizmatlar" bevosita "Buyurtmachi"ning mas'ul xodimi tomonidan dalolatnoma bo'yicha qabul qilinadi. Dalolatnomada ko'rsatilgan "Xizmatlar" miqdori, ularning sifati ko'rsatiladi.

4.7. Shartnomada nazarda tutilgan "Xizmatlar" ko'rsatilishi mazkur shartnomaga muvofiq yoki "Buyurtmachi"ning buyurtmanomasi ko'rsatilgan muddatlar va hajmda mazkur shartnomada ko'rsatilgan davr mobaynida amalga oshiriladi. Ushbu maqsadlarda "Bajaruvchi" Buyurtmachilarining buyurtma nomalarini ro'yxatdan o'tkazish daftarni yuritadi. Buyurtma nomi "Xizmatlar"ning tegishli qismlarini ko'rsatish mo'ljallanayotgan sanasigacha kamida 5 kun oldin chopar orqali, pochta orqali yoki boshqacha tarzda beriladi. Buyurtma nomani chopar orqali qabul qilishda "Bajaruvchi"ning xodimi "Buyurtmachi"da qoladigan nusxaga sanani ko'rsatgan holda u qabul qilinganligi to'g'risidabelgiyo'yadi.

4.8. "Buyurtmachi" ilgari berilgan buyurtmanomani bekor qilishga yoxud "Xizmatlar"ning tegishli qismlarini ko'rsatish sanasini o'zgartirishga haqlidir, bu haqda "Bajaruvchi"ni buyurtmanomada ko'rsatilgan sana boshlanishidan kamida 3 kun oldinxabardor qiladi.

V. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1 Taraflar majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganligi natijasida kelib chiqadigan nizolar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiybazasi "to'g'risidagi Qonuni va ushbu shartnomaga asosan hal qilinadi

5.2. "Xizmatlar" ko'rsatish bo'yicha shartnomada nazarda tutilgan bajarilgan ishlari sifati ,assortimenti standartlar, texnik shartlar, namunalarga (etalonlarga) qonunchilikda yoki xo'jalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmasa, xizmatlarni qabul qilish hamda ularning haqini to'lashni rad etib, "Bajaruvchi"dan sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo'lmagan tovarlar (ishvaxizmatlar)qiyatining 20 foizi miqdorida jarima undiri bolishga, haqi to'lab qo'yilgan tovarlar (ishvaxizmatlar) bo'lsa, to'langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga haqlidir.

5.3. Xizmatlar ko'rsatish kechiktirilgan yoki to'liq ko'rsatilmagan taqdirda "Bajaruvchi""Buyurtmachi"ga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiyligi summasi ko'rsatilmagan "Xizmatlar" qiyatining 50 foizidan ortiq bo'lmasisligi kerak. Penya to'lanishi shartnoma majburiyatlarini buzzantomonni shartnomani zarur tarzda bajarishdan va "Xizmatlar" ko'rsatish muddati kechiktirilishi yoki to'liq ko'rsatilmasligi tufayli yetkazilgan zararlar qoplanishidan ozod etmaydi.

5.4. Ko'rsatilgan "Xizmatlar" uchun o'z vaqtida haq to'lanmaganda "Buyurtmachi" "Bajaruvchi"ga muddati kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida maxsus hisob raqamidan penya to'laydi, biroq bu kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmasisligi kerak.

5.5. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan tomonlarning javobgarligi chora-tadbirlari fuqarolik qonunchiligin normalariga muvofiq qo'llaniladi.

VI. NIZOLARNI·HAL ETISH TARTIBI

6.1. Tomonlar o'rtasida kelib chiqadigan nizolar o'zaro muzokara olib borish yo'li bilan hal qilinadi,agar tomonlar kelisha olmasalar yuzaga kelgan nizolar qonunchilikka muvofiq iqtisodiy sud tartibida hal etiladi.

VII. FORS-MAJOR HOLATLARI

7.1 Tomonlarga bog'liq bo'lmagan, oldindan oldini olish mumkin bo'lmagan holatlari shu jumladan e'lon qilingan fuqarolik urushi, epidemiyalar, blokadalar, embargolar, zilzilalar, toshqinlar, yong'inlar, shuningdek davlat organlari tomonidan qabul qilingan qarorlar, farmonlar, tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan holatda majburiyatlarni bajarmaganligi uchun tomonlar javobgarlikdan ozod qilinadi.

7.2. Taraflar o'zlariga bog'liq bo'lmagan holatlarda majburiyatlarni bajara olmasalar, ushbu holat yuzaga kelgan vaqtidan 3 kun ichida boshqa tarafni yozma ravishda ogohlantirishi kerak.

VIII. SHARTNOMANING KUCHGA KIRISHI VA AMAL QILISHI

8.1. O'zbekiston Respublikasi "Budget kodeksi"ning 122- moddasiga asosan shartnoma tegishli tartibda g'aznachilik bo'limi ro'yxatidan o'tkazilgandan so'ng qonuniy kuchga kiradi va 2022-yil «31»-dekabrgacha amalda bo'ladi..

8.2. Tomonlar o'rtasidagi munosabatlarular tomonidan mazkur shartnomaning barcha shartlari bajarilgan va hisob - kitob to'liq tugallangan taqdirda to'xtatiladi.

IX. Korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlar

9.1. Shartnomaning taraflari, ular tomonidan jalb qilinadigan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tanlanishi lozim.

9.2. Taraflar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan, pora berishni taklif qilmaydi, va'da bermaydi, tovlamachilik qilmaydi, pora sifatida pul to'lamaydi, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaydi yoki pora, ya'ni taraflardan biri o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergen shaxsnинг manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yoki mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olmaydi. Taraflar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rilib shiga kafolat beradi.

9.3. Agar shartnoma bo'yicha bir taraf boshqa tarafning axloqqa to'g'ri kelmaydigan va ushbu shartnoma yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid keladigan hatti-harakatlariga, shu jumladan, korrupsiyaga oid huquqbazarliklar sodir etishga majburlashdan iborat bo'lgan faktlarga duch kelsa, qonunchilikda belgilangan tartibda huquqni muhofaza qiluvchi organlarni xabardor qilishi shart

9.4. Shartnomaning tarafi va u tomonidan jalb qilingan shaxslar (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslar) tomonidan korrupsiyaga qarshi qo'shimchashartlarga riroyet etilmaganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-sentabr sanasidagi PF- 6313-son farmonmonidan kelib chiqib ikkinchi taraf shartnomani bir taraflama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni qoplab berishni talab qilishga haqli bo'ladi.

X. YAKUNIY QOIDALAR

10.1. Mazkur shartnoma tomonlarning kelishuviga ko'ra yoki boshqa tomon shartnoma shartlarini jiddiy ravishda buzgan taqdirda, tomonlardan birining talabi bo'yicha sud tartibida bekor qilinishi mumkin.

10.2. Mazkur shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar ular yozma shaklda sodir etilishi va tomonlarning bunga zarur darajada vakil qilingan vakillari tomonidan imzolanishi sharti bilan haqiqiy hisoblanadi.

10.3. Mazkur shartnoma tomonlarning har biri uchun bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuziladi.

10.4. Mazkur shartnoma ,unga o'zgartirishlar (qo'shimchalar) ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin bajarilishi kerak.

XI. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI

«Bajaruvchi»

"OOO SDD BUSINESS CENTRE" MCHJ
Manzil Gijduvon shahri Sharq kuchasi
Teifon 90-511-90-60
H/R 20208000100832907001
Bank nomi Mikrokreditbank
Gijduvon tuman filiali
MFO 00104 OKONX 86900
INN 305236191



Rahbar

D.Sodiqov

«Buyurtmachi»

Shofirkon tuman XTB
Manzil M.Ashrafiy kuchasi 14-uy
Tel 65-502-21-51
Sh/r 100022860062587092100075061
Budjetdan mablag oluvchi INN 201113224
OKONX 97600
Gaznachilik bulinmasi Shofirkon tuman
Gazna h/v 23402000300100001010
Bankning nomi Tjshkent Markaziy bankning
XKKM MFO 00014 Gaznachilik bulinmasi
STIRi 201122919

Rahbar

R.Atoyev



ТҮЛОВ ЖАДВАЛИ

Шоғиркон туман ХТБ ва "ООО SDD BUSINESS CENTRE" МСНЖ билан 39024250
умумий суммасидаги
2022 й. "29" Апрельдаги 2022-134-2-41-ХТ сон шартномага

Булим 709 БОБ 100 Параграф 075

(сүмда)

2022й. ойлар номи	Харажатлар тури			Жами
	42-99-990			
Январ				
Феврал				
Март				
Апрел				
Май	39024250			39024250
Июн				
Июл				
Август				
Сентябр				
Октябр				
Ноябр				
Декабр				
Жами йил бўйича	39024250			39024250

Жами; 39024250 (Уттиз туккиз миллион йигирма турт минг икки юз эллик)
сум

Юқоридаги кўрсатилган суммадан 11707275 сўм ёки шартноманинг умумий
суммасидан 30 % олдиндан 2022 йил ~~Мас~~ ойида олдиндан туланиши лозим .

М.ў.



(имзо)

Газначилик бўлинмаси
ходими қабул қилди
2022 й. «___» _____

Бюджетдан маблағ олувчи
ходими қабул қилди
2022 й. «___» _____

Р.Атоев

(имзо)

А.Очилов

(имзо)